| Raimov Farrux Avazjon o'g'li                                                                                                |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ В ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....                | 605 |
| Мирпулатова Луиза Мансуровна, Абдумажидов Шахзод Шерзод угли                                                                |     |
| O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING YAIMDAGI ULUSHI VA UNING IQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....                               | 610 |
| Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna                                                                                             |     |
| MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....                         | 615 |
| Normurodova Zebo Eshmaxmatovna                                                                                              |     |
| SURXONDARYO VILOYATI ISHLAB CHIQARISH SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGI KO'RSATKICHLARINING STATISTIK TADQIQOTI.....    | 619 |
| Buriyev Ubaydulla Bozor o'g'li                                                                                              |     |
| MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI VA ULARNI YECHIMLAR.....                                  | 623 |
| Normurzayev Umid Xolmurzayevich                                                                                             |     |
| YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA ULARNI BOSHQARISH MASALALARI.....                                    | 630 |
| Yuldasheva Nazokat Muzaffar qizi                                                                                            |     |
| AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING BARQAROR RIVOJLANISH MEKANIZMI: MONITORING VA BAHOLASH TIZIMI.....                         | 635 |
| Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH TENDENSIYALARI VA MUAMMOLARI.....                                               | 640 |
| Raxmanova Iroda Xasilovna                                                                                                   |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH VA RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR.....          | 645 |
| Turgunov Abror Kadirovich                                                                                                   |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT DAVRIDA BANK XIZMATLARI VA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARNING TARAQQIYOTI.....                                | 650 |
| Muminova Marguba Mamirkulovna                                                                                               |     |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                 | 655 |
| Ulashev Xubbim Askarovich                                                                                                   |     |
| KADRLAR SIYOSATI VA DAVLAT XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH HAMDA RIVOJLANTIRISHNING MILLIY MODELINI YARATISH.....          | 659 |
| Turayev Laziz Shokirovich                                                                                                   |     |
| BALIQ YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMRADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....           | 664 |
| Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li                                                                                             |     |



|                                                                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH JARAYONIDA SOLIQ TAFOVUTINI (VAT GAP) ANIQLASH VA BAHOLASH USULLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA ADAPTIV YONDASHUV..... | 670 |
| Urazmatov Jonibek Musurmanovich                                                                                                                                            |     |
| HUDUDLAR SOLIQ SALOHİYATI: OMILLAR VA NATIJA.....                                                                                                                          | 675 |
| Baxtiyorov Umid Kaxramon o'g'li                                                                                                                                            |     |
| AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIKNI RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI INNOVATSION TRANSFORMATSIYA QILISH MEXANIZMLARI.....                                                               | 680 |
| Ermetov A.I.                                                                                                                                                               |     |
| TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHDA SUPPLY CHAIN CONTROL TOWER KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI.....                                                                   | 686 |
| Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich                                                                                                                                         |     |
| KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA AXBOROT RESURSLARINING BOSHQARUV MODEL VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....                                                    | 691 |
| Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li                                                                                                                                       |     |
| DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA MENTORLIK TIZIMINI TATBIQ QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....                                                                                  | 696 |
| Xurshida Maxmadaminova                                                                                                                                                     |     |
| QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING HISOB-KITOB VA UNDIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....                                                              | 706 |
| Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li                                                                                                                                       |     |
| ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ УЗБЕКИСТАНА.....                                                 | 715 |
| Наимов Шохрух Шарофиддинович                                                                                                                                               |     |
| KORPORATIV DIVIDEND SIYOSATINING YANGI JIHATLARINI O'RGANISH: RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKAT MISOLIDA.....                                                                       | 723 |
| Eshev Furqat A'zamovich                                                                                                                                                    |     |
| RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA "AQLLI SHAHAR" BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH: INSONGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV.....                                                          | 730 |
| Raximova Madina Shuxrat qizi                                                                                                                                               |     |
| HUDUDIY IQTISODIY TIZIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY TUZILMALARI.....                                                                                                     | 737 |
| Umarov Oqil Omiljonovich                                                                                                                                                   |     |
| MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARINING FOND BOZORIDAGI INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                           | 742 |
| Yuldashev Fozil Turapovich                                                                                                                                                 |     |
| MAKROIQTISODIY MUVOZANATNI MODELLASHTIRISHDA MATEMATIK USULLARNING TATBIQI VA PROGNOZLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....                                                         | 749 |
| Abdiraimov Abbos Xolmurodovich                                                                                                                                             |     |
| ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....                                                                               | 756 |
| Мирзамухамедова Шахзода Акмалжон кизи                                                                                                                                      |     |
| O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH.....                                                                               | 762 |
| Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li                                                                                                                                      |     |
| СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СОСТОЯНИЙ ЧЕЛОВЕКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИМИ ОБОРОТАМИ РУССКОГО ЯЗЫКА.....                                                                                       | 766 |
| Жумаев Шавкат ХХХ                                                                                                                                                          |     |
| SUV XO'JALIGI SOHASIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....                                                                               | 769 |
| Dilshod Pulatov, Dildora Mirzaeva                                                                                                                                          |     |
| МЕТОДЫ СБОРА И АНАЛИЗА ДАННЫХ ДЛЯ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЦИФРОВЫХ ИНВЕСТИЦИЙ.....                                                                                         | 776 |
| Каракулов Фарход Зайпудинович                                                                                                                                              |     |





|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| HEΦOPMAJbHAA3AHATOCb И TEHEBAACTOPOH AЭKOHOМИKИ PЕСПУБЛИKИ YЗБEKИCTAH:<br>AHAJИЗ CTpyKTypHbIX BbI3OBOP И ГОCУДAPCTBEHHbIX MEPA ПO ЛEГAJИЗАЦИИ ..... | 782 |
| Cалахyтдиновa Юлдуз Голибовна                                                                                                                       |     |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING<br>XUSUSIYATLARI .....                                                            | 787 |
| Xalikov Akmal Xolboyevich                                                                                                                           |     |
| TIJOPAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI .....                                                                  | 793 |
| Roziqov Behzod Bahrom o'g'li                                                                                                                        |     |



UO'K:336.76  
JEL: R87

# TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI

**Roziqov Behzod Bahrom o'g'li**

Fan va texnologiyalar universiteti Iqtisodiyot kafedrası dotsenti,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.  
ORCID: 0009-0009-7693-3288  
E-mail: [Graf-6512@mail.ru](mailto:Graf-6512@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tijorat banklarining raqobatbardoshligini, faoliyat samaradorligini hamda qiymat taklifini oshirishga qaratilgan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish strategiyalari tahlil qilinadi. Global texnologik rivojlanish va mijozlar ehtiyojlarining tezkor o'zgarishi sharoitida tijorat banklari bozor talablariga moslashish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Tadqiqotda banklarning barqaror o'sishini ta'minlash va mijozlar ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga xizmat qiluvchi asosiy strategik yo'nalishlar aniqlangan. Xususan, raqamli transformatsiya, mahsulot va xizmatlar portfelini kengaytirish, mijozlar tajribasini takomillashtirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, risklarni boshqarish tizimini mustahkamlash, inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish hamda barqaror moliyalashtirish amaliyotlarini rivojlantirish muhim yo'nalishlar sifatida asoslab berilgan. Ushbu strategiyalarning izchil amalga oshirilishi tijorat banklarining moliyaviy xizmatlar bozoridagi yetakchi mavqeini mustahkamlashga, biznes o'sishini rag'batlantirishga hamda iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikka erishishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, moliyaviy xizmatlar, raqamli transformatsiya, mahsulot takliflari, mijozlar tajribasi, moliyaviy inklyuziya, risklarni boshqarish, inson kapitali, barqaror moliyalashtirish, innovatsiyalar.

**Abstract.** This article examines strategies for the development of financial services aimed at enhancing the competitiveness, operational efficiency, and value proposition of commercial banks. In the context of global technological advancement and rapidly evolving customer preferences, commercial banks face the need to adapt to changing market demands and implement innovative approaches. The study identifies key strategic directions that support sustainable growth and maximize customer satisfaction. In particular, the importance of digital transformation, expansion of product and service portfolios, improvement of customer experience, enhancement of financial inclusion, strengthening of risk management systems, increased investment in human capital, and the development of sustainable finance practices is substantiated. The consistent implementation of these strategies enables commercial banks to strengthen their leadership positions in the financial services market, stimulate business growth, and contribute to broader economic and social well-being.

**Key words:** commercial banks, financial services, digital transformation, product offerings, customer experience, financial inclusion, risk management, human capital, sustainable finance, innovation.

**Аннотация.** В статье рассматриваются стратегии развития финансовых услуг, направленные на повышение конкурентоспособности, эффективности деятельности и ценностного предложения коммерческих банков. В условиях глобального технологического развития и стремительно меняющихся потребностей клиентов коммерческие банки сталкиваются с необходимостью адаптации к требованиям рынка и внедрения инновационных подходов. В исследовании определены ключевые стратегические направления, обеспечивающие устойчивый рост банков и максимальное удовлетворение потребностей клиентов. В частности, обоснована значимость цифровой трансформации, расширения продуктового и сервисного портфеля, совершенствования клиентского опыта, повышения доступности финансовых услуг, укрепления системы управления рисками, увеличения инвестиций в человеческий капитал и развития практик устойчивого финансирования. Последовательная реализация данных стратегий способствует укреплению лидирующих позиций коммерческих банков на рынке финансовых услуг, стимулированию роста бизнеса, а также достижению экономического и социального благополучия.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, финансовые услуги, цифровая трансформация, продуктовые предложения, клиентский опыт, финансовая доступность, управление рисками, человеческий капитал, устойчивое финансирование, инновации.



## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi ikki pog'onali tuzilishga ega bo'lib, birinchi pog'onada mamlakatning Markaziy banki, ikkinchi pog'onada esa tijorat banklari faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining asosiy huquqiy poydevori 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi 154-I-sonli Qonuni<sup>1</sup> bilan belgilanadi. Mazkur Qonun Markaziy bankning mamlakat pul-kredit tizimi barqarorligini ta'minlovchi yetakchi institut sifatidagi maqomini yanada mustahkamladi.

Qonunda Markaziy bank va Hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aniq va batafsil belgilab berilgan. Xususan, Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida mustaqil organ ekanligi, davlat Markaziy bankning majburiyatlari bo'yicha, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari bo'yicha javobgar emasligi qat'iy tarzda mustahkamlab qo'yilgan [16]. Ushbu normalar pul-kredit siyosatini yuritishda Markaziy bankning institutsional mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunda Markaziy bankning kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish borasidagi vakolatlari belgilangan. Jumladan, Markaziy bank bank nazoratining masofaviy hamda inspeksion shakllarini qo'llash huquqiga ega bo'lgan vakolatli organ sifatida belgilangan. Shuningdek, Markaziy bank tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdoriga nisbatan talablar belgilash hamda ushbu talablarni o'zgartirish vakolatiga ega.

Mulkchilik shakliga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki davlat banki hisoblanadi, chunki uning ustav kapitali to'liq davlat budjeti mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Bundan tashqari, Markaziy bank tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash vakolatiga ham ega.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ijro etuvchi hokimiyat organlariga bo'ysunmaydi, balki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga hisobot beradi, bu esa uning faoliyatida ochiqlik va institutsional mustaqillikni ta'minlaydi.

Markaziy bank faoliyatini tartibga soluvchi muhim huquqiy asoslardan yana biri "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi. Mazkur Qonunning 10-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga soluvchi organ sifatida belgilangan. Shuningdek, Qonunning 20-moddasida Markaziy bankning valyuta munosabatlari sohasida davlat organi sifatidagi maqomi mustahkamlangan.

Shuningdek, 1996-yil 25-aprelda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi 216-I-sonli Qonunining<sup>2</sup> qabul qilinishi bilan bank tizimining ikkinchi pog'onasini tashkil etuvchi tijorat banklari faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi va ularning faoliyat mexanizmlari to'liq huquqiy jihatdan tartibga solindi [16].

Mazkur Qonunda tijorat banklarining huquq va majburiyatlari, amalga oshiradigan operatsiyalari, vakolatlari hamda bank faoliyatiga oid boshqa muhim masalalar aniq va tizimli ravishda belgilab qo'yilgan. Qonunning 7-moddasida mamlakatimizda banklar mulkchilikning har qanday shakli asosida aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etilishi mumkinligi mustahkamlangan. Bu holat yagona davlat mulkchiligidan farqli ravishda ko'p ulushli mulkchilik asosidagi banklarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Shu bilan birga, bank faoliyatidan manfaatdor asosiy subyektlar bank ta'sischilari, ya'ni aksiyadorlar hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklarida aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Mazkur yo'nalishda muhim huquqiy asos sifatida 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"<sup>3</sup>gi O'zbekiston Respublikasi 223-I-sonli Qonuni alohida ahamiyatga ega. Ushbu Qonun 2014-yil 6-mayda<sup>4</sup> O'RQ-370-sonli qarorda yangi tahrirda qayta qabul qilingan.

Qonunda aksiyadorlik jamiyatlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, ularning faoliyat prinsiplari, aksiyadorlarning huquqlari va majburiyatlari hamda manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari batafsil yoritib berilgan. Bu esa mamlakatimizda tijorat banklarida korporativ boshqaruvni shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

Har qanday iqtisodiy faoliyatning ishonchli, samarali va barqaror amalga oshirilishi uning milliy va xalqaro me'yoriy talablarga muvofiqligi bilan bevosita bog'liq. Mazkur talablarga rioya etilish darajasi, asosan, auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar va ularning xulosalari orqali xolisona baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 24-iyulda qabul qilingan "Respublikada bank auditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1500 Farmoni<sup>5</sup> mamlakatimizda tijorat banklari faoliyatini auditdan o'tkazish tizimini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.12.1995 yildagi 154-I-son <https://lex.uz/docs/-72266?ONDATE=13.01.1996%2000>

2 O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 25.04.1996 yildagi 216-I-son <https://lex.uz/docs/-2681?ONDATE=22.02.1997%2000>

3 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.04.1996 yildagi 223-I-son <https://lex.uz/docs/-6567?otherlang=1>

4 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.2014 yildagi O'RQ-370-son <https://lex.uz/docs/-2382409>

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.07.1996 yildagi PF-1500-son <https://lex.uz/docs/-177161?ONDATE=30.04.2021>



Mazkur Farmon natijasida qisqa muddat ichida respublika tijorat banklari xalqaro miqyosda e'tirof etilgan auditorlik kompaniyalari tomonidan audit tekshiruvlaridan o'tkazila boshlandi. Bu holat bank tizimida shaffoflikni oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash hamda investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qildi.

Bugungi kunda an'anaviy bank xizmatlari bilan bir qatorda raqamli banking xizmatlari jadal rivojlanib, bank sektorining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Banklar xizmatlar turini doimiy ravishda takomillashtirib borishi ularning daromadlarini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish va bozor raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini bermocda. Shu bois moliyaviy xizmatlar sanoatining rivojlanish sur'atlari sezilarli darajada tezlashmoqda.

Yuqorida tahlil qilingan FinTech tendensiyalari mijozlar ehtiyojlari va talablariga mos ravishda shakllanib, moliyaviy xizmatlar provayderlariga moliyaviy ma'lumotlardan samarali foydalanish, shaffoflikni oshirish, tranzaksiyalarni tezkor qayta ishlash, masofaviy xizmatlar ko'rsatish, ishonchli identifikatsiya usullarini joriy etish hamda mijozlar bilan munosabatlarni uzoq muddatli rivojlantirish imkonini bermocda.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili tijorat banklarida barqaror rivojlanish tamoyillarining ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, banklar faoliyatida yashil bank amaliyotlari kengroq joriy etilmoqda. Kelgusida ushbu strategiyalarning barqaror rivojlanish natijalariga erishishdagi samaradorligini, shuningdek, tez o'zgaruvchan global muhit sharoitida tijorat banklarining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashdagi rolini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va bank sektorini rivojlantirish tendensiyalarini asoslash maqsadida 2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish mexanizmlarining institutsional ta'minoti baholanmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki" unitar korxonasini aksiyadorlik jamiyatiga ("O'zmilliybank" AJ) aylantirish, 2021–2025-yillarda bank sektori sub'yektlarini xususiyalashtirish, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish hamda respublika tijorat banklari faoliyatini raqamli transformatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 mlrd AQSh dollariga yetkazish hamda bank omonatlari hajmini bir necha barobarga oshirish istiqbolli maqsadlar sifatida belgilangan. O'zbekiston tijorat banklari tomonidan jalb qilingan omonatlar hajmi 2020–2024-yillar oralig'ida barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Jumladan, 2020-yilda jami omonatlar hajmi 2,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 5,6 trln so'mga yetdi. Bu esa to'rt yil davomida omonatlar hajmining qariyb 2,5 barobarga oshganini ko'rsatadi. Ushbu ijobiy dinamika bank sektorining moliyaviy barqarorligi va aholi ishonchining ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan uzoq muddatli maqsadlarga bosqichma-bosqich erishish istiqbollari saqlanib qolmoqda [14].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot doirasida tijorat banklari vakillari, bank rahbarlari, mijozlar, moliyaviy faoliyatni tartibga soluvchi organlar hamda soha mutaxassislarini o'z ichiga oluvchi maqsadli auditoriya aniqlandi. Barqaror bank amaliyotlari bo'yicha tegishli bilim va tajribaga ega ishtirokchilarni tanlash maqsadida maqsadli tanlab olish (purposive sampling) usulidan foydalanildi.

Shuningdek, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va barqaror rivojlanish bilan bog'liq asosiy o'zgaruvchilar aniqlanib, ular bir nechta guruhlariga ajratildi. Xususan, moliyaviy ko'rsatkichlar (rentabellik, aktivlar sifati, likvidlik), barqarorlik ko'rsatkichlari (uglerod izi, ijtimoiy ta'sir, boshqaruv amaliyotlari) hamda moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash strategiyalari (raqamli transformatsiya, mahsulotlarni diversifikatsiya qilish) alohida tahlil obyektlari sifatida belgilandi.

Bundan tashqari, maqolada so'rovnoma natijalari va moliyaviy faoliyat ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish maqsadida statistik usullar, jumladan, regressiya tahlili va korrelyatsiya tahlilidan foydalanildi. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy asoslanganligini oshirishga xizmat qildi.

Korporativ moliyaviy xizmatlar korporatsiyalarning moliyaviy faoliyatini samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Franco Modigliani va Merton Miller tomonidan ilgari surilgan Modigliani–Miller teoremasiga ko'ra, mukammal bozor sharoitida firmaning qiymati uning qarz yoki kapital orqali moliyalashtirilish usuliga bog'liq bo'lmaydi [2]. Mazkur teorema soliqlar, bankrotlik xarajatlari va axborot assimetriyasi omillari hisobga olinmagan sharoitda kapital tuzilmasi firmaning umumiy qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatmasligini anglatadi.

Shu bilan birga, real iqtisodiy sharoitlarda korporativ moliyaviy xizmatlar firmalarda kapitalni jalb qilish, qo'shilish va qo'shib olish jarayonlari, kapital tuzilmasini optimallashtirish, moliyaviy rejalashtirish hamda xatarlarni boshqarish kabi strategik qarorlarni qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Samarali tashkil etilgan korporativ moliya xizmatlari firmalarning o'sishi, moliyaviy barqarorligi va bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi.





Iqtisodchi olim F.I. Mirzayevning fikriga ko'ra, bank xizmatlari bank daromadlarining o'sishini ta'minlovchi, shuningdek, xususiy va korporativ banklar hamda iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bank tadbirkorligining an'anaviy sohasi hisoblanadi [3].

Shuningdek, B.T. Berdiyarov va O.A. Ortiqov bank aktiv operatsiyalarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikki yirik guruhga — bank likvidligini ma'lum darajada saqlab turish uchun amalga oshiriladigan operatsiyalar hamda daromad olishga qaratilgan operatsiyalarga ajratadilar. Ularning ta'kidlashicha, ushbu ikki guruh o'rtasidagi muvozanat bank faoliyatining sifat jihatidan barqarorligini ta'minlash imkonini beradi [4].

Mazkur tadqiqot metodologiyasiga rioya qilgan holda, tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish strategiyalarini barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'un holda chuqur va tizimli o'rganish imkoniyati yaratiladi. Bu esa nafaqat akademik bilimlar bazasini boyitadi, balki bank amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan aniq ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga ham xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tijorat banklari faoliyatida moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish tushunchasi keng qamrovda tahlil qilindi. Diversifikatsiya bank faoliyatida tavakkalchilikni kamaytirish hamda daromad manbalarini kengaytirish maqsadida xizmat turlarini, mijozlar segmentlarini yoki bozor yo'nalishlarini kengaytirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv banklarning barqaror faoliyat yuritishi va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari faoliyatida diversifikatsiya, avvalo, kreditlash xizmatlarini turli tarmoqlar va mijozlar segmentlariga yo'naltirish, to'lov va hisob-kitob xizmatlarini zamonaviy raqamli platformalar — mobil ilovalar, onlayn-banking va QR-to'lovlar orqali kengaytirish, investitsion xizmatlar ko'rsatish, sug'urta, lizing, faktor va forfeyting kabi moliyaviy xizmatlarni joriy etish, shuningdek, valyuta operatsiyalarini rivojlantirish hamda eksport–import faoliyatini moliyalashtirishni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishlar banklarning xizmatlar portfelini boyitib, ularning bozor imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish bank faoliyati uchun qator muhim afzalliklarni ta'minlaydi. Xususan, daromad manbalarining ko'p qirrali bo'lishi tavakkalchilik darajasini pasaytiradi, chunki bir yo'nalishdagi yo'qotishlar boshqa yo'nalishdagi daromadlar hisobiga qoplanishi mumkin. Shu bilan birga, diversifikatsiya banklarning daromad bazasini kengaytirib, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, xizmatlar assortimenti kengayishi esa raqobatbardoshlikni kuchaytirib, mijozlar sonining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, diversifikatsiya innovatsion rivojlanishni jadallashtirib, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlar uchun qulay va sifatli moliyaviy xizmatlar yaratilishiga zamin hozirlaydi.

O'zbekiston bank tizimida moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish jarayoni so'nggi yillarda raqamli transformatsiya bosqichi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. "Raqamli bank", "onlayn kreditlash" va "mobil banking" kabi xizmatlar keng joriy etilib, banklarning operatsion samaradorligini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Xususan, ayrim bank va raqamli platformalar tomonidan innovatsion to'lov va kredit mahsulotlari yo'lga qo'yilmoqda, milliy banklar esa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda investitsion loyihalarni moliyalashtirish orqali xizmatlar ko'lamini kengaytirmoqda. Shuningdek, banklarning fintex kompaniyalari bilan hamkorligi yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni yaratish imkonini bermoqda.

Kelgusida tijorat banklarida moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish jarayonining yanada chuqurlashishi kutilmoqda. Jumladan, sun'iy intellektga asoslangan tahliliy xizmatlar, masofaviy identifikatsiya va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish orqali raqamli bank mahsulotlarini rivojlantirish, yashil moliya yo'nalishida ekologik loyihalarni moliyalashtirish hamda "yashil" obligatsiyalar chiqarishni kengaytirish, islom moliyasi xizmatlari doirasida foizsiz moliyalashtirish, murabaha va ijara asosidagi operatsiyalarni takomillashtirish istiqbolli yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes va startaplar uchun maxsus moliyaviy dasturlar, inkubatsiya va investitsiya xizmatlarini joriy etish hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish orqali aholi va kichik tadbirkorlarning bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish bank sektorining barqaror va inklyuziv rivojlanishiga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari ustav kapitalining minimal me'yorlarini belgilovchi asosiy tartibga soluvchi organ hisoblanadi. Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish jarayonlari doirasida Markaziy bank tomonidan yangi tashkil etiladigan banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish hamda uni 2030-yil 1-yanvar sanasiga qadar belgilangan darajalarga yetkazish bo'yicha takliflar amaliyotga joriy etildi. Ushbu yondashuv bank sektorining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va uning institutsional rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.



Mazkur islohotlar doirasida tijorat va xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va joylashtirish, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslardan jalb etiladigan depozitlar hajmini kengaytirish hisobiga bank aktivlarini ko'paytirishga yo'naltirilgan 2020–2030-yillarga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berildi [14]. Shu bilan birga, tijorat banklarining regulyativ kapitali bank aktivlarining umumiy hajmiga nisbatan 10 foizdan kam bo'lmasligi talabi majburiy me'yor sifatida belgilandi.

Tijorat va xususiy banklarning aksiyadorlik jamiyatlarini samarali va ishonchli boshqarishda faol hamda kengroq ishtirok etishi respublika bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Banklarni xususiylashtirish jarayonida ularning ishtirokini kengaytirish maqsadida tijorat banklariga qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozorida qatnashish, shuningdek, xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarining 50 foizgacha qismini belgilangan tartibda sotib olish huquqi berildi. Bundan tashqari, tijorat banklari aksiyalari (ulushlari) bo'yicha jismoniy shaxslar tomonidan dividend shaklida olingan daromadlar 2026-yil 1-yanvar sanasiga qadar soliqqa tortishdan ozod qilindi, bu esa investitsion faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Aholi turmush darajasini oshirishda ipoteka va iste'mol kreditlarining ahamiyati alohida o'rin tutadi. Mamlakatda aholi farovonligini ta'minlash, ipoteka va iste'mol kreditlarini berishni rag'batlantirish hamda ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2016-yil 4-oktyabr sanada qabul qilingan "Ipoteka to'g'risida"gi Qonun hamda 2017-yil 6-may sanada qabul qilingan "Iste'mol krediti to'g'risida"gi Qonun amaliyotga joriy etildi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar banklar tomonidan aholiga iste'mol va ipoteka kreditlarini ajratish imkoniyatlarini kengaytirib, mijozlar talablariga mos moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonini jadallashtirdi.

Bank sektorida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida banklarni xususiylashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Oldingi davrlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi, Moliya vazirligi va Markaziy bank ishtirokida ayrim yirik banklarni xususiylashtirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa, so'nggi yillarda ushbu jarayon yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, 2024-yil sentabr oyida imzolangan kelishuv memorandumida ipoteka-bankni xususiylashtirish bo'yicha muhim bitimga erishildi.

Mazkur bitim doirasida Ipoteka-bankni xususiylashtirish bo'yicha oldi-sotdi shartnomasi Toshkent shahrida OTP Bank nomidan Boshqaruv raisi – bosh direktor Sándor Csányi va bosh direktor o'rinbosari László Wolf, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi nomidan moliya vaziri Timur Ishmetov, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi nomidan Bosh vazir – investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Jamshid Xodjaev tomonidan imzolandi.

Kelishuv shartlariga ko'ra, OTP Bank O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli bo'lgan Ipoteka-bank aksiyalarining 100 foizini (jami aksiyalarning qariyb 97 foizi) ikki bosqichda sotib oladi: dastlab aksiyalarning 75 foizi, uch yildan so'ng esa qolgan 25 foizi xarid qilinadi [14]. Ipoteka-bankning bank bozorida ulushi 8,5 foizni tashkil etib, u O'zbekistonning beshinchi yirik banki hisoblanadi hamda chakana mijozlar soni 1,6 milliondan ortiqni tashkil etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish nafaqat daromadlarni oshirishga, balki butun bank tizimining barqaror va uzluksiz rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim strategik jarayon hisoblanadi. Kelgusida raqamli transformatsiya, islom moliyasi, yashil moliya hamda innovatsion moliyaviy xizmatlarning kengayishi O'zbekiston bank sektorining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi. Shu bois moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish tijorat banklari faoliyatining strategik ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi lozim.

Tijorat banklarida moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish jarayonini jadallashtirish maqsadida, eng avvalo, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda fintex texnologiyalarini bank amaliyotiga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan mijozlar segmentlariga moslashtirilgan innovatsion moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish moliyaviy inklyuziyani oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yashil moliya va islomiy moliya instrumentlarini bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish banklarning daromad bazasini diversifikatsiya qilish va barqaror moliyaviy natijalarga erishish imkonini kengaytiradi.

Bundan tashqari, risklarni boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarni ko'paytirish hamda bank-mijoz munosabatlarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish bank sektorida uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIOTLAR RO'YXATI

1. Hamidi, H., & Nourani, M. (2020). Green banking practices: A systematic literature review. *Corporate Social Responsibility and Environmental Management*, 27(1), 3–22.
2. Modigliani, F., & Miller, M. (2018). Financial markets development, business cycle, and bank risk: Evidence from the GCC countries. *Research in International Business and Finance*, 46, 418–442.



3. Mamadiyarov, Z. T. (2021). Banklarni transformatsiya qilish sharoitida masofaviy bank xizmatlari bilan bog'liq risklarni boshqarish. *Экономика и финансы (Ўзбекистан)*, № 5 (141).
4. Berdiyarov, B. T., & Ortiqov, O. A. (2020). COVID-19 koronavirus pandemiyasi sharoitida O'zbekistonda bank sohasini transformatsiyalash jarayonini jadallashtirish. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, № 5 (sentabr-oktyabr).
5. Abdullaeva, Sh. Z. (2003). *Bank ishi: darslik*. Toshkent. 312 b.
6. Casu, B., Girardone, C., & Molyneux, P. (2006). *Introduction to banking*. Pearson Education. 526 p.
7. Berdiyarov, B. T. (2002). *Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi (i.f.n. dissertatsiyasi avtoreferati)*. Toshkent. 20 b.
8. Berger, A. N., & Goyal, V. K. (2009). Technological advancements in banking: Mobile banking, online platforms, and digital wallets. *Journal of Financial Economics*, 94(2), 185–202.
9. Bernards, N. (2022). *Fintech and its limits: A critical history of poverty finance – colonial roots and neoliberal failures*. Pluto Press, 154–178.
10. Bilotta, N., & Romano, S. (2019). Tech giants in banking: The implications of a new market power. *Istituto Affari Internazionali (IAI)*.
11. Calomiris, C. W., & Haber, S. H. (2014). *Fragile by design: The political origins of banking crises and scarce credit*. Princeton University Press. 49 p.
12. Hsu, S., & Li, J. (2020). *China's fintech explosion: Disruption, innovation, and survival*. Columbia University Press, 185–201.
13. Keynes, J. M. (1936). *The general theory of employment, interest, and money*.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018). Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Qaror. 2018-03-23, PQ-3620-son. <https://lex.uz/docs/-3593541>
15. Siddik, M. N. A., & Islam, M. A. (2020). The nexus between financial development and environmental quality: Evidence from Asian economies. *Environmental Science and Pollution Research*, 27(18), 22694–22706.
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Rasmiy veb-sayt: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
17. [Graf-6512@mail.ru](mailto:Graf-6512@mail.ru)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---